

**POREY PIYOZINI KELIB CHIQISHI TARIXI, TARQALISHI VA  
YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI.**

*Eshqobilova Karomat Baxtiyor qizi<sup>2</sup>*

*Toshkent davlat agrar unversiteti talabasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada piyozdoshlar oilasiga mansub bo'lgan porey piyozini dastlab qaysi hududlardan kelib chiqqanligi va hozirda ko'plab davlatlarda keng miqyosda yetishtirilayotganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Porey piyozini biologik xususiyatlari va yetishtirish agrotexnologiyasi haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** porey piyozi, marvarid piyoz, allium ampeloprasum, urug' ko'chat, tuproq, o'g'itlash, harorat, namlik, suv.*



Bugungi kunda dunyo aholi soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. Aholi soni ortishi bilan oziq-ovqatga bo'lgan talab ham ortmoqda. Hozirda olimlarimiz tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, qishloq xo'jalik sohasida yangiliklar ko'paymoqda. Xususan, meva-sabzavotlarni yangidan yangi mo'l hosil beruvchi navlari yaratilmoqda va mavjud bo'lganlari o'rganilib, sohaga tadbiiq qilinmoqda.

Jumladan, yurtimizda piyozdoshlar oilasiga mansub bo'lgan, bir qator foydali xususiyatlarga ega bo'lgan, porey piyozi tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilib, dehqonlarimiz tomonidan porey piyozini yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Insonlar ko'p vaqtlardan beri piyozning turli xillari oziq-ovqat mahsuloti sifatida ishlatib kelmoqda. Piyozning asl vatani Old Osiyo hisoblanib, Yevropagacha

tarqalgan. Misr va Yevropaning deyarli barcha qismlarida o'rta asrlarga kelib yetishtirila boshlangan. Hozirda porey piyozi dunyo bo'yicha 0,126 mln.ga maydonga ekilib, 2.1mln. tonnage yaqin hosil olinadi. Porey piyozini eng ko'p yetishtiradigan mamlakatlarga Indoneziya (0,5 mln. t), Turkiya (0,2 mln. t), Belgiya (0,18 mln. t), Fransiya (0,16 mln. t), Xitoy (0,15 mln. t) kabilar kiradi. Porey piyozini ikkinchi nomi marvarid piyoz – Piyozdoshlar oilasiga kiruvchi, piyoz turkumiga mansub tur hisoblanadi. Hozirda porey piyozi oziq-ovqat mahsuloti sifatida ishlatilishi bo'yicha sarimsoq piyoz va bosh piyozdan keyingi o'rinda turadi. Porey piyozini ba'zi adabiyotlarda marvarid piyoz deb ham atashadi.

Porey piyozidan dastlab qadimgi Misrliklar, Yunonlar va Rimliklar oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda ishlatishgan. Dastlab, porey piyozi miloddan oldingi 3000 yilda Misrda yetishtirila boshlangan. Hozirda ham bu hududlarda uning yovvoyi holda o'suvchi turi *Allium ampeloprasum*ni uchratish mumkin, o'sha vaqtda Misrda oziq-ovqat mahsuloti sifatida ishlatilgan porey piyozining madaniy turi shu yovvoyi turdan ya'ni *Allium ampeloprasum*dan kelib chiqqan. Porey piyozining soxta oq poyasi va yosh bargalari yoqimli ta'mga va xushbo'y hidga ega bo'lib taomlarga o'zgacha maza beradi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida porey piyozi yetakchi sabzavot ekini sifatida keng tarqalgan. U boshqa piyozlar bilan birga yoki ularning o'rniga turli xil taomlar tayyorlashda ishlatiladi. Porey piyozi biologik faol moddalarning boy manbai bo'lib, yuqori hosildorligi, kasalliklarga, zararkunandalarga va ba'zi noqulay o'sish sharoitlariga chidamliligi bilan ajralib turadi. Porey piyozi boshqa turlaridan farqli o'laroq, o'tkir, nozik ta'mga ega bo'lib, bu insonlarni parhez tutushida qulay hisoblanadi. Porey piyozi shifobaxsh xususiyati bor uning tarkibida oltingugurt birikmalari, flavonoidlar, kimyoviy moddalarning ko'pligidan boshqa piyozdoshlardan ajralib turadi Piyoz mikroblarga qarshi, yallig'lanishga qarshi, tomirlarni kengaytiruvchi xususiyatlarga ega va u immunostimulyator hisoblanadi. Porey piyozi nafaqat ovqatga ishlatilishi mumkin, balki qayta ishlash sanoatida ham ishlatiladi.

Porey piyozini ikki xil usulda urug'idan va ko'chatidan yetishtiriladi. Ko'chat usulidan foydalanganda urug'lar fevral-mart oylarida maxsus konteynerlarga ekiladi. Gumusli tuproqlarda ekilgan urug'lardan yaxshi ko'chat olish mumkin. 1gr urug' 1m<sup>2</sup> maydonga ekiladi. Urug'larni ekishda qatorlab, bir-birining oraliq masofasi 4-5 sm bo'ladi. Urug' ekishda urug'lar 1,2-1,5 sm chuqurga tushishi kerak. Urug'larning unib chiqishida harorat +20°C va +25°C oraliq'ida bo'lishi tavsiya etiladi. Urug'lar bir yarim haftada unib chiqadi. Urug'lar unib chiqqandan keyin, harorat kunduzi +15°C dan +17°C, kechasi +10°C dan +14°C gacha bo'lishi ham yetarli hisoblanadi. Konteynerlarga ekilgan urug'lar unib chiqqandan keyin doimiy ravishda sug'orilishi va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirilib turilsa ko'chatlar yaxshi rivojlanadi. Ko'chatlar yerga o'tkazilishidan bir necha kun oldin ochiq havoga 2-3 soat olib chiqib chiniqtirilib turilsa, ular ochiq dalaga ko'chirilib o'tkazilganda tuproqqa yaxshi moslashadi. Ko'chatlarni yerga ko'chirib o'tkazish vaqtida ko'chatda kamida uchtdan chin barg hosil qilgan bo'lishi kerak. Ko'chatlarni ko'chirib o'tkazishda qator oralig'i 30 sm, ko'chatlar oralig'i 15-20 sm, ekish chuqurligi 10 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Ko'chatlar dalaga ko'chirib o'tkazilib bo'lgandan so'ng sug'orish ishlari olib boriladi. O'g'itlashda mineral o'g'itlardan yoki go'ngdan foydalanish mumkin. Hosil miqdorini oshirish uchun mineral o'g'itlardan: azot-200kg/ga, fosfor-150kg/ga va kaliydan-75 kg/ga solish tavsiya etiladi. Agar doimiy ravishda piyozning atrofidagi tuproq yumshatilib turilsa, tuproq kislorod bilan boyidi va o'simlik yaxshi o'sib, rivojlanadi. Porey piyozining vegetatsiya davrining iyul oylarida namlikka bo'lgan talabi sezilarli darajada oshadi. Ko'chatlar yerga o'tkazilgandan keyin, moslashguncha 2-3 marta sug'orilib turiladi. Umumiy vegetatsiya davrida esa 6-7 marta sug'oriladi. Qatorlar orasidagi begona o'tlar doimiy ravishda tozalanib turiladi va bu ish kultivatorlar yordamida amalga oshiriladi.

Porey piyozi sovuqqa chidamli ekin. Lekin uning vegetatsiya davrining ayrim davrlarida sovuqqa bardosh bera olmaydi. Urug'larning unib chiqishi uchun +20°C harorat yetarlidir. Urug'lar unib chiqqandan keyin harorat pasaysa ham ular rivojlana oladi. Porey piyozining ko'chatlari bahor oylarida bo'ladigan -1°C-3°C

haroratga ham chidamlidir lekin harorat undan tushsa ko'chatlar nobud bo'ladi. Olimlarning olib borgan tadqiqotlari natijasida, porey piyozini rivojlanishini birinchi yili uchun harorat  $+21^{\circ}\text{C}+25^{\circ}\text{C}$  optimal hisoblanadi, undan yuqori harorat o'simlikda yashil massa to'planishini kechiktiradi. Vegetatsiya davrining ikkinchi yili o'simlikga harorat unchalik ta'sir qilmaydi.

Porey piyozning vegetatsiya davridagi umumiy haroratlar yig'indisi  $2800^{\circ}\text{C}-3400^{\circ}\text{C}$  bo'lishi kerak. Rivojlangan nihollar ikkinchi yili  $-5^{\circ}\text{C}-7^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lgan bahorgi sovuqlarga ham chidamli bo'ladi. Tadqiqotchilar porey piyozni kun uzunligiga bo'lgan ta'sirini va ular orasidagi bog'liqlikni o'rganishgan va buning natijasida, porey piyozning kun uzunligiga chidamliligi qish va yozda bir xil navni yetishtirishga imkon berishini aniqlashgan. Porey piyozning rivojlanishi uzun kunlarda jadal kechadi, qisqa kunlarda esa rivojlanish kechroq bo'ladi. Porey piyozi namsevar o'simlik. 1 sentner hosil uchun suv sarfi taxminan  $5-7\text{m}^3$  ni tashkil qiladi. Porey piyozni vegetatsiya davrining urug'ning unib chiqishida va barglarning o'sishi davrida namlikka bo'lgan ehtiyoji ortadi. Agar sug'orish ishlari o'z vaqtida olib borilmasa, piyozning bargalari bujmayadi va bu holat hosilga ta'sir qilib, piyozboshlar kichik bo'lib qoladi. Shunday qilib, namlikning yetishmasligi porey piyoz hosilini 30-40% ga pasayishiga olib kelishi mumkin.

. Yurtimizda piyozning bu yangi navini keng miqyosda yetishtirishni yo'lga qo'yish bilan aholini foydali xususiyatlarga ega bo'lgan sabzavot bilan doimiy ravishda ta'minlash mumkin. Porey piyozini yetishtirish agrotexnologiyasini to'g'ri qo'llash orqali, yuqori hosildorlikka erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Qurbonov H.O', Sanayev G'. Sh. Porey piyozining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga agrotexnik elementlarning ta'siri / Ilmiy maqola / Samarkand branch of Tashkent State Agrarian University Conference | 2023 1-b
2. Xakimov Sh.Sh, Usmonov M.S. Porey piyozining oziq-ovqat va shifobaxshlik xususiyatlari, nav na'munalari va yetishtirish agrotexnologiyasi / ilmiy maqola / 3rd -International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany June 30th 2022 1-2b

3. Адрицкая Н.А, Костго И.Г. хозяйственно биологическая и технологическая оценка сортов лука порея в условиях северо-западного региона 22-23-25с
4. Jahbaraliyev A.Z. Porey piyozining atrof-muhit omillariga bo'lgan munosabati / Journal article Zenodo. ZDTF, 2(9), 17-18, 2023.